



**BUXORO VILOYATI STATISTIKA
BOSHQARMASI**



*2024- yil yanvar-iyun oylari
uchun dastlabki ma'lumot*

BUXORO VILOYATI TASHQI SAVDO AYLANMASI

*Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi bo'limi:
(65) 223-75-63)*



TASHQI SAVDO AYLANMASI



Viloyatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar xorijiy davlatlar bilan savdo aloqalarining jadal o'sishiga xizmat qilmoqda. Xususan, viloyatning eksport salohiyatini oshirish bo'yicha qabul qilingan qarorlar mahalliy kompaniyalarga tashqi bozorlarda ko'proq tajriba oltirishga imkon beradi. Pirovardida ular jahon savdosida raqobatdosh ustunlikka ega bo'ladi.

Viloyatda bu borada so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan eksportni rag'batlantirish, importni optimallashtirish va umuman olganda tashqi savdo muvozanatini ta'minlash maqsadida amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida, 2024- yil yanvar-iyun oylarida viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) 648,2 mln. AQSH dollariga yetdi va 2023- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 3,8 mln. AQSH dollariga yoki 0,6 % ga kamaydi.



TASHQI SAVDO AYLANMASI (2024-yil yanvar - iyun , mln. AQSH dollari)



Tashqi savdo aylanmasi

2024- y.: 648,2 -0,6%

(2023- y.: 652,0)



Saldo

2024- y.: -372,8(2023- y.: -361,0)



Eksport

2024- y.: 137,7 -5,4%

(2023- y.: 145,5)

TSA'dagi ulushi, % da



21,2



Import

2024- y.: 510,5 +0,8 %

(2023- y.: 506,5)



78,8

Tashqi savdo aylanmasi – muayyan davr uchun mamlakat eksporti va importi qiymatining miqdori hisoblanadi. Tovarlarining tashqi savdo statistikasida O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududiga olib kirish (import) yoki O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududidan olib chiqish (eksport) natijasida mamlakat material resurslari zaxiralariga qo‘shiladigan yoki ulardan ayirib tashlanadigan tovarlar hisobi tashqi savdo umumiy hisob tizimi asosida yuritiladi.



TSAda eksport hajmi 137,7 mln. AQSH dollariga (2023- yilning yanvar – iyun oylariga nisbatan 5,4% ga kamaydi) va import hajmi 510,5 mln. AQSH dollariga (4,0 % ga kamaydi) yetdi. Hisobot davrida -372,8 mln. AQSH dollari qiymatida manfiy tashqi savdo balansi qayd etildi.




BUXORO VILOYATI TASHQI SAVDO AYLANMASIDA ENG YUQORI ULUSHGA EGA BO‘LGAN DAVLATLAR (2024- yil yanvar - iyun, mln. AQSH dollari)

XXR TSA – 226,6 Eksport: 13,9 Import: 212,7  35,0%	Rossiya TSA – 170,5 Eksport: 42,9 Import: 127,6  26,3%	Turkmaniston TSA – 50,8 Eksport: 46,6 Import: 46,2  7,8 %	Turkiya TSA – 32,9 Eksport: 9,5 Import: 23,4  5,1 %	Eron TSA – 32,0 Eksport: 2,2 Import: 29,8  4,9 %
Qozog‘iston TSA – 28,7 Eksport: 8,0 Import: 20,7  4,4 %	Afg‘oniston TSA – 23,2 Eksport: 23,1 Import: 0,1  3,6 %	Germaniya TSA – 19,3 Eksport: 2,8 Import: 16,5  3,0 %	Qirg‘iziston TSA – 8,0 Eksport: 6,4 Import: 1,6  1,2 %	AQSH TSA – 6,3 Eksport: 5,7 Import: 0,6  1,0 %

Buxoro viloyati jahonning 70 ta mamlakatlari bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSAning nisbatan salmoqli hissasi XXRda (35,0 %), Rossiyada (26,3 %), Turkmanistonda (7,8 %), Turkiyada (5,1 %) va Eronda (4,9%) qayd etilgan.



BUXORO VILOYATINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI (2024- yil yanvar - iyun, mln. AQSH dollari)


Davlatlar		2022- y.	2023- y.	2024- y.
XXR		85,0	85,1	226,6
	<i>Eksport</i>	10,4	4,9	13,9
	<i>Import</i>	74,6	80,2	212,7
Rossiya		106,5	286,3	170,5
	<i>Eksport</i>	32,2	37,0	42,9
	<i>Import</i>	74,3	249,3	127,6
Turkmaniston		120,0	46,3	50,8
	<i>Eksport</i>	4,1	5,5	4,6
	<i>Import</i>	115,9	40,8	46,2
Turkiya		65,7	281,2	32,9
	<i>Eksport</i>	16,2	14,2	9,5
	<i>Import</i>	49,5	26,7	23,4
Eron		28,2	19,4	32,0
	<i>Eksport</i>	11,1	2,3	2,2
	<i>Import</i>	17,1	17,1	29,8
Qozog'iston		36,9	48,1	28,7
	<i>Eksport</i>	13,5	11,4	8,0
	<i>Import</i>	23,4	36,7	20,7
Afg'oniston		14,7	19,7	23,2
	<i>Eksport</i>	14,5	19,6	23,1
	<i>Import</i>	0,2	0,1	0,1
Germaniya		17,2	12,6	19,3
	<i>Eksport</i>	1,3	3,9	2,8
	<i>Import</i>	15,9	8,7	16,5
Qirg'iz Respublikasi		13,5	12,4	8,0
	<i>Eksport</i>	12,7	10,2	6,4
	<i>Import</i>	0,8	2,2	1,6
AQSh		-	0,2	6,3
	<i>Eksport</i>	-	-	5,7
	<i>Import</i>	-	0,2	0,6

Davomi

	Davlatlar	2022- y.	2023- y.	2024- y.
	Hindiston	2,3	5,6	6,2
	<i>Eksport</i>	0,6	3,2	4,6
	<i>Import</i>	1,7	2,4	1,6
	Tojikiston	5,6	14,9	5,4
	<i>Eksport</i>	2,9	14,1	3,8
	<i>Import</i>	2,7	0,8	1,6
	Belarus	2,0	7,4	4,8
	<i>Eksport</i>	0,3	-	0,5
	<i>Import</i>	1,7	7,4	4,3
	Belgiya	0,2	0,3	3,8
	<i>Eksport</i>	-	-	-
	<i>Import</i>	0,2	0,3	3,8
	Litva	7,2	9,9	3,6
	<i>Eksport</i>	1,1	0,7	1,1
	<i>Import</i>	6,1	9,2	2,5
	Polsha	5,4	8,3	3,5
	<i>Eksport</i>	1,8	4,5	2,1
	<i>Import</i>	3,6	3,8	1,4
	Koreya Respublikasi	2,9	3,6	3,4
	<i>Eksport</i>	0,2	0,4	0,2
	<i>Import</i>	2,7	3,2	3,2
	Finlyandiya	0,4	0,1	2,6
	<i>Eksport</i>	-	-	-
	<i>Import</i>	0,4	0,1	2,6
	Pokiston	2,5	2,5	2,2
	<i>Eksport</i>	1,0	1,9	1,1
	<i>Import</i>	1,5	0,6	1,1
	Ozarbayjon	1,1	2,6	1,5
	<i>Eksport</i>	0,6	1,8	1,5
	<i>Import</i>	2,5	0,8	-



BUXORO VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA TASHQI SAVDO AYLANMASI (2024- yil yanvar-iyun mln. AQSH doll.)*



2023- y.


2024- y.

Viloyat tashqi savdo aylanmasi tarkibida eng yuqori ulushni Qorovulbozor 53,2 % ulush bilan 342,0 mln. AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa Shofirkon tumani 0,8 % ulush bilan 5,1 mln. AQSH dollarini tashkil etdi.

Buxoro viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi 2024- yil yanvar-iyun oylarida 271,0 mln. AQSH dollarini tashkil etdi. Shundan eksport 68,9 mln. AQSH dollariga yetgan bo'lsa, import 308,6 mln. AQSH dollari qiymatida qayd etildi.




BUXORO VILOYATINING MDH MAMLAKATLARI BILAN UMUMIY TASHQI SAVDO AYLANMASIDAGI ULUSHI (2024- yil yanvar- iyun, ulushi, % da)

Rossiya – 62,9 	Tojikiston – 2,0 
Turkmaniston – 18,7 	Belarus – 1,8 
Qozog'iston – 10,6 	Ozarbajjon – 0,5 
Qirg'iziston – 3,0 	Ukraina – 0,4 



Viloyatning MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi eng yuqori hajmlari Rossiya (62,9 %), Turkmaniston (18,7 %) hamda Qozog'iston (10,6 %) davlatlari bilan qayd etildi.

BUXORO VILOYATINING YEOIIIGA A'ZO DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI (2024-yanvar - iyun, mln. AQSH dollari)



 Viloyatning Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqiga a'zo davlatlar bilan tashqi savdo aylanmasi 212,0 mln. AQSH dollarini tashkil etdi. Shundan eksport hajmi 57,8 mln. AQSH dollari, import hajmi esa 154,2 mln. AQSH dollariga yetdi.

Shuni takidlash lozimki, YEOIIning a'zo davlatlari (Rossiya, Belarus, Qozog'iston, Armaniston va Qirg'iz Respublikasi) o'rtasida tovarlar va xizmatlar harakati, migrantlar harakatlanishi va kapital harakatining erkinligi ta'minlangan bo'lib, yagona bojxona tizimiga ega bo'lgan umumiy iqtisodiy hudud shakllantirilgan.



BUXORO VILOYATI EKSPORTI

(2024- yil yanvar - iyun)



Xalqaro iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi eksportning barqaror o'sishiga ko'maklashadi va bu o'z navbatida ma'lum natijalarga erishish uchun zamin yaratadi. Viloyatning eksport salohiyatini oshirish, eksportyorlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, eksportbop mahsulotlar nomenklaturasini kengaytirish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar natijasida, eksportyorlar soni 224 taga yetdi va ular tomonidan 137,7 mln. AQSH dollari (*nomoneta oltindan tashqari*) qiymatidagi (2023- yilning mos davriga nisbatan 0,6 % ga kamaydi) tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta'minlandi.



XSST* BO'YICHA EKSPORT TARKIBI

(2024- yil yanvar - iyun ulushi % da)



O'zbekiston Respublikasida tovarlar tashqi savdosi statistik ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi (keyingi o'rinlarda TIF TN) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (keyingi o'rinlarda – XSST) ishlatiladi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarni XSST bo'yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o'rtasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.



BUXORO VILOYATINING XSST BO'YICHA EKSPORTI TARKIBI (2024- yil yanvar - iyun, yillar kesimida)

XSST tarkibi	Mln. AQSH dollari		O'zgarish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nisbatan, % da	
	2023	2024	2023	2024	2023	2024
Jami eksport	145,5	137,7	105,1	94,6	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	13,6	7,9	63,4	58,2	9,3	5,7
Ichimliklar va tamaki	2,0	0,7	-	35,0	1,4	0,5
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	6,2	10,2	43,4	164,2	4,3	7,4
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	27,1	21,7	146,9	80,1	18,6	15,7
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	-	2,6	-	-	-	1,9
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	5,3	2,0	142,0	38,7	3,6	1,5
Sanoat tovarlari	70,6	74,6	101,3	105,5	48,5	54,2
Mashinalar va transport asbob-uskunolari	3,0	0,6	-	19,8	2,1	0,4
Turli xil tayyor buyumlar	8,6	7,0	241,9	81,9	5,9	5,1
Xizmatlar	9,1	10,3	156,0	113,4	6,3	7,5

Eksport tarkibida tovarlar ulushi 92,5 % ni tashkil etib, ular sanoat tovarlari (54,2 %), turli xil tayyor buyumlar (5,1 %) va mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar (15,7 %) hissasiga to'g'ri kelmoqda.




BUXORO VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARGA AMALGA OSHIRGAN EKSPORTI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI (2024-yil yanvar-iyun)

Davlatlar	Mln. AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		Egallab turgan o'rni	
	2023-y.	2024-y.	2023-y.	2024-y.	2023-y.	2024-y.
Rossiya Federasiyasi	37,0	42,9	114,9	115,9	1	1
Afg'oniston	19,6	23,1	135,2	117,8	2	2
XXR	4,9	13,9	47,1	2,8 m.	8	3
Turkiya	14,2	9,5	87,7	66,9	3	4
Qozog'iston	11,4	8,0	84,4	70,1	5	5
Qirg'iziston	10,2	6,4	80,3	62,7	6	6
AQSH	-	5,7	-	-	37	7
Turkmaniston	5,5	4,6	134,1	83,6	7	8
Hindiston	3,2	4,6	5,3 m.	143,8	11	9
Tojikiston	14,1	3,8	4,7 m.	26,9	4	10
Germaniya	3,9	2,8	3,0 m.	71,8	10	11
Eron	2,3	2,2	20,7	95,6	12	12
Polsha	4,5	2,2	2,5 m.	48,9	9	13
Ozarbajjon	1,8	1,5	3,0 m.	83,3	15	14
Ukraina	1,7	1,2	72,3	70,6	16	15
Litva	0,7	1,1	58,3	157,1	20	16
Pokiston	1,9	1,1	190,0	57,9	14	17
Belarus	-	0,5	-	-	36	18
Gruziya	-	0,3	-	-	40	19
Bangladesh	0,5	0,3	-	60,0	21	20



BUXORO VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA EKSPORTI

(2024- yil yanvar - iyun, mln.AQSH doll.)*



Eng yuqori hajm,
mln. AQSH dollari

31,1 %

Buxoro sh. – 42,8

15,1 %

G'ijduvon – 20,8

14,6 %

Qoruvulbozor- 20,1

Eng quyi hajm,
mln. AQSH dollari

0,9 %

Jondor – 1,3

1,7 %

Kogon sh – 2,3

1,7 %

Buxoro – 2,4

2023- y.

2024- y.

Viloyatda eksport tarkibida eng yuqori ulushni Buxoro shahri **31,1** foiz ulush bilan **42,8** mln. AQSh dollarni, eng quyi ulushni esa Jondor tumani **0,9** foiz bilan **1,3** mln. AQSh dollarini tashkil etdi.



MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI



Hukumat tomonidan qishloq xo'jaligi va bog'dorchilikni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilayotgani bois eksport qilinayotgan mahsulotlar sifati va hajmi yildan-yilga ortib bormoqda. Jumladan, 2024- yil yanvar - iyun oylarida 9,7 ming tonna meva va sabzavotlar eksporti amalga oshirilgan bo'lib, ushbu ko'rsatkich 2023- yilning mos davriga nisbatan 74,2 % ga yoki 27,9 ming tonnaga kamaydi.

Meva-sabzavot mahsulotlarining asosiy eksport bozorlari Qozog'iston (82,2 %) va Rossiya (5,4 %) davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan.

2024- yil yanvar- iyun oylarida oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismi bo'lgan 5,3 mln. AQSH dollari qiymatidagi meva-sabzavot eksport qilindi. Bu ko'rsatkich 2023- yilning mos davriga nisbatan 50,3 % ga kamaydi va jami eksportdagi ulushi 7,7 % ni tashkil etdi.



MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI (2024- yil yanvar - iyun, o'zgarish sur'atlari, qiymatga nisbatan)

Uzum	Karam	Piyoz	Pomidor
0,2 mln. AQSH dollari	0,5 mln. AQSH dollari	0,6 mln. AQSH dollari	0,8 mln. AQSH dollari
0,1 ming tonna	1,4 ming tonna	3,7 ming tonna	1,0 ming tonna
 5,5 % ↓	 12,4 % ↓	 15,5 % ↓	 23,8 % ↓



TO'QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI



So'nggi yillarda yengil sanoatda yuqori qo'shilgan qiymatdagi mahsulotlar ishlab chiqarish rivojlanib bormoqda. Yengil sanoat iqtisodiy jihatdan O'zbekiston uchun muhim soha bo'lgani holda, aholi bandligining yuqori darajasini, shuningdek, sanoat salohiyatiga hamda davlatimizning xalqaro nufuziga hissa qo'shilishini ta'minlaydi.

To'qimachilik mahsulotlarining eksporti hajmlarining oshishini bevosita paxta xomashyosini o'rniga tayyor mahsulot ishlab chiqarish va qo'shimcha qiymat yaratish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar natijasi sifatida qarash mumkin.


Xususan, 2024- yil yanvar - iyun oylari yakuni bo'yicha 12,2 mln. AQSH dollarilik 16,5 % ini, o'tgan yilga nisbatan 84,2% ni tashkil etdi.

Eksport qilingan to'qimachilik mahsulotlari tarkibida trikotaj mato (80,1 %), tayyor to'qimachilik mahsulotlari (14,4 %) asosiy ulushni egallagan.



TO'QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI

(2024- yil yanvar - iyun, mln. AQSH dollari)





BUXORO VILOYATINING IMPORTI



2024- yil yanvar – iyun oylarida import hajmi **510,5** mln. AQSh dollarini va 2023- yilga nisbatan **100,8** foizni tashkil qildi.

Import tarkibida eng katta ulush mashinalar va transport asbob-uskunolari (**51,5** foiz) va mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar (**32,6** foiz) hisobiga to'g'ri keldi.



XSST BO'YICHA IMPORT TARKIBI

(2024- yil yanvar - iyun, ulushi, % da)



Tovarlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2024- yilning yanvar –iyun oylarida import qilingan tovarlar hajmi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 4,0 mln. AQSH dollariga ko'paydi va 510,5 mln. AQSH dollarini tashkil etdi.



BUXORO VILOYATININGNING XSST BO'YICHA IMPORTI TARKIBI (2024-yil yanvar - iyun, yillar kesimida)

XSST tarkibi	Mln. AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nisbatan. % da	
	2023	2024	2023	2024	2023	2024
Jami import	506,5	510,5	120,4	100,8	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	15,0	8,7	105,8	58,0	3,0	1,7
Ichimliklar va tamaki	-	0,2	-	-	-	-
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	12,5	8,0	89,7	63,9	2,5	1,6
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	284,0	166,3	175,4	58,6	56,1	32,6
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	0,6	0,8	112,5	122,1	0,1	0,2
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	48,1	31,8	110,1	66,0	9,5	6,2
Sanoat tovarlari	25,3	25,8	69,9	101,9	5,0	5,1
Mashinalar va transport asbob uskunalari	113,0	262,9	83,2	232,7	22,3	51,5
Turli xil tayyor buyumlar	8,0	5,9	57,1	73,9	1,6	1,2
Xizmatlar	-	0,2	-	-	-	-




BUXORO VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARDAN AMALGA OSHIRGAN IMPORTI HAJMLARI VA O'SISH SUR'ATLARI (2024-yil yanvar - iyun,)

Davlatlar	Mln. AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmdagi o'rni	
	2023- y.	2024- y.	2023- y.	2024- y.	2023- y.	2024- y.
XXR	80,2	212,7	107,5	2,6 m.	2	1
Rossiya	249,2	127,6	3,3 m.	51,2	1	2
Turkmaniston	40,8	46,2	35,2	11,3	3	3
Eron	17,1	29,8	100,0	174,3	6	4
Turkiya	25,7	23,4	51,9	91,0	5	5
Qozog'iston	38,7	20,7	165,4	53,5	4	6
Germaniya	8,7	16,5	54,7	189,7	8	7
Belarus	7,4	4,3	4,3 m.	58,1	9	8
Belgiya	0,3	3,8	150,0	-	11	9
Koreya Respublikasi	3,2	3,2	118,5	100,0	30	10
Finlyandiya	0,1	2,6	25,0	-	39	11
Litva	9,2	2,5	150,8	27,1	7	12
Qirg'iziston	2,2	1,6	2,8 m.	72,7	14	13
Hindiston	2,5	1,6	147,1	64,0	13	14
Tojikiston	0,8	1,6	29,6	2,0 m.	20	15
Polsha	3,8	1,4	105,6	36,8	10	16
Buyuk Britaniya	0,5	1,1	-	2,2 m.	28	17
B.A.A	1,2	1,1	2,4 m.	91,7	17	18
Pokiston	0,6	1,1	40,0	183,3	25	19
Niderlandiya	3,0	0,8	46,9	26,7	12	20




BUXORO VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA IMPORTI

(2024 -yil yanvar - iyun, mln. AQSH doll.)



Eng yuqori hajm,
mln. AQSH dollari



Eng quyi hajm,
mln. AQSH dollari



2023- y.

2024- y.

Viloyat importi tarkibida eng yuqori ulushni Qorovulbozor tumani **63,0** foiz ulush bilan **321,9** mln. AQSh dollarini, eng quyi ulushni esa Olot tumani **0,4 %** ulush bilan **2,1** mln. AQSh dollarini tashkil etdi.